

**“Ta'lim ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha eng yaxshi
o'quv-uslubiy qo'llanma” respublika tanlovini tashkil etish va o'tkazish
tartibi to'g'risida
NIZOM**

Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim muassasalari, shuningdek, psixologik-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ta'lim tashkilotlarida (keyingi o'rinlarda – ta'lim tashkilotlari) faoliyat yuritayotgan psixolog-pedagoglar o'rtasida “Ta'lim ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha eng yaxshi o'quv-uslubiy qo'llanma” respublika tanlovini (keyingi o'rinlarda – tanlov) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Tanlov ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o'tkaziladi.
2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jarayonlar Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) tomonidan muvofiqlashtiriladi.
3. Tanlovda ta'lim tashkilotlari psixologlari o'z xohishlariga ko'ra, ixtiyoriy ravishda qatnashadilar.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

4. Tanlovning maqsadi ilg'or g'oyalar va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan iqtidorli psixolog va mutaxassislarni aniqlash hamda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat.
5. Tanlovning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
 - ilg'or tajribalarni umumlashtirish va ularni respublikamiz miqyosida ommalashtirish;
 - psixologlarning ta'limda faolligini oshirish va o'z yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratilishiga erishish;
 - psixologik qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini aniqlash;
 - yaratilgan o'quv-uslubiy, tavsiyaviy qo'llanmalarni Internet ijtimoiy tarmoqlariga erkin foydalanish uchun joylashtirish, ular to'g'risida keng pedagogik jamoatchilikni xabardor qilish.

3-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

6. Tanlov bir bosqichda iyun-sentabr oylarida respublika miqyosida o'tkaziladi.

7. Tanlovni sifatli va yuqori saviyada tashkil etish uchun kamida 13 nafardan iborat tashkiliy qo'mita tuziladi.

8. Tanlovga taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqish va baholash uchun tanlov hay'ati tashkil etiladi. Tanlov hay'ati tarkibiga ekspert sifatida yuqori tajribaga ega bo'lgan kamida 7 nafar malakali mutaxassislar kiritiladi. Zarur hollarda tanlov hay'ati tarkibiga qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

9. Tanlovga materiallar elektron formatda **raqamlitalim.trm.uz/psychology** platformasi orqali **2025-yil 10-sentabrgacha** qabul qilinadi. Bunda o'quv-uslubiy qo'llanmalar tanlovga quyidagi hujjatlar bilan taqdim etiladi:

tanlovda ishtirok etish uchun tanlov komissiyasi nomiga ariza (mazkur Nizomga 1-ildovada keltirilgan namuna asosida);

muallif/tuzuvchilar haqidagi ma'lumot (F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, bog'lanish uchun telefon raqami);

o'quv-uslubiy qo'llanma nomi;

o'quv-uslubiy qo'llanmaning qisqacha mazmuni (annotatsiya);

o'quv-uslubiy qo'llanmaning kitob ko'rinishidagi fayli (PDF);

o'quv-uslubiy qo'llanmaning ilmiy yoki ta'lim tashkilotlarining kengash yig'ilishi muhokamasidan o'tganligi to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma;

o'quv-uslubiy qo'llanmaga soha mutaxassislardan ikkita taqriz (PDF).

10. Belgilangan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi va mualliflarni ogohlantirmasdan tanlovdan chiqariladi. Shuningdek, tanlovga topshirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar mualliflarga qaytarib berilmaydi.

11. Ikki yoki undan ortiq bir xil mazmun va shakldagi, shuningdek, ko'chirilgan (plagiat) ishlanmalar tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

12. Eng yaxshi o'quv-uslubiy qo'llanmaga quyidagi talablar qo'yiladi:

aniq, qiziqarli va maqsadli auditoriyaga (yosh guruhi, malaka darajasi va boshqalar) mos bo'lishi;

tanlovning maqsad va vazifalariga mos kelishi;

mavzu psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari va nazariyalariga asoslanishi;

keltirilgan ma'lumotlar ishonchli manbalardan olinishi va havolalarning berilishi (foydalanilgan adabiyotlar va manbalar);

ilmiy tushunchalarning aniq va to'g'ri ifodalanishi;

ilmiy yoki murakkab tushunchalar sodda va tushunarli tilda izohlanishi;

misollar, analogiyalar va topshiriqlar real hayotiy vaziyatlar yordamida tushuntirilishi;

ilmiy faktlar, tadqiqot natijalari va nazariy yondashuvlar asosida yoritilishi;

har bir bo'limda aniq mavzularning yoritilishi, o'zaro bog'liqlikning bo'lishi;

kundalik hayotda uchraydigan turli muammolarga yechim topishga yo'naltiradigan loyihalar va shunga o'xshash amaliy tadqiqotlarning mavjud bo'lishi;

psixologik terminlarning to'g'ri va izchil qo'llanilishi;

misollar, keyslar, topshiriqlar va mashqlar bilan boyitilgan bo'lishi;

har bir mavzudan keyin tafakkurni rivojlantiruvchi savollar va topshiriqlar berilishi.

13. Tanlovga taqdim etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar quyidagi shakliy-texnik talablarga mos bo'lishi kerak:

eng kam hajmi 64 betdan iborat bo'lishi;

annotatsiya 6-8 ta gapdan oshmasligi;

kalit so'zlar (indeksatsiya uchun) 8-12 so'zdan iborat bo'lishi;

qo'lyozma tahriri 1,5 interval, Times New Roman 14 shriftda (matn yuqoridan – 20 mm, pastdan – 20 mm, chapdan – 30 mm, o'ngdan – 15 mm li hoshiyalar oralig'iga joylashtirilishi; betlar pastki qism markazida, ketma-ketlik saqlangan holda raqamlanishi) bo'lishi;

jadvallarni "Microcoft Word"ning "tablitsa" funksiyasi orqali kiritish;

ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);

bo'limlar va mavzular aniq ajratilgan bo'lishi;

matnni xotirada saqlashni osonlashtirish, mavzulardagi ixcham chizmalar, turli tasviriy ifodalar, jadval, infografika hamda rasmlar bilan muvofiq tarzda ta'minlanishi;

muhim ma'lumotlar qalin shrift, rangli fon yoki ramkalar bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

4-bob. O'quv-uslubiy qo'llanmalarni baholash va g'oliblarni aniqlash

14. Tanlovga taqdim etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar **joriy yilning 20-sentabrigacha** tanlov hay'ati ekspertlari tomonidan mazkur Nizomga 2-ilovada keltirilgan baholash mezonlari asosida 100 ballik tizimda baholanadi.

15. Baholash natijalari asosida kamida 86 ball to'plagan eng yuqori 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va ularning mualliflari tashkiliy qo'mita qarori bilan g'olib deb belgilanadi.

16. Agar ishtirokchilarning ikki va undan ortig'i bir xil ball to'plasa, bunda tanlov hay'atining xulosasiga ko'ra tashkiliy qo'mita qarori bilan barcha g'oliblar mos o'rinlar bo'yicha taqdirlanadi.

17. Tanlovda g'olib deb topilgan mualliflarning o'quv-uslubiy qo'llanmalari ommalashtirish uchun mazkur Nizomga 3-ilovada keltirilgan ommaviy oferta asosida Markazning rasmiy veb-saytlari va ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtiriladi.

5-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

18. Tanlovning natijalari **joriy yilning 30-sentabrida** Markazning rasmiy veb-saytlari va ularning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e'lon qilinadi.

19. Tashkiliy qo'mita qarori bilan g'olib deb topilgan bitta I o'rin, ikkita II o'rin, bitta III o'rin ishtirokchilari Markazning maxsus diplomi va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek 5 ta nominatsiya bo'yicha g'olib deb topilganlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

20. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishda faollik ko'rsatgan tashkiliy qo'mita va tanlov hay'ati ekspertlari moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga tavsiya etiladi.

6-bob. Yakuniy qoida

21. Tanlovning respublika bosqichini o'tkazish muddatiga Markaz direktorining tegishli buyrug'i bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaga

_____dan

ARIZA

Men, _____ni ta’lim tashkilotlari uchun “Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovida ishtirok etish uchun ruxsat berishingizni so‘rayman.

Tanlovga _____lar (*muallif yoki mualliflar F.I.Sh.*) muallifligidagi “_____” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma taqdim etilmoqda.

Tanlovning shartlari, baholash me‘zonlari va ommalashtirish bo‘yicha ommaviy oferta talablari bilan tanishdim. Shuningdek, tanlovga topshirilayotgan o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda hujjatlar qaytarilmasligiga roziman.

Ilova:

1. *Muallif (mualliflar guruhi a‘zolari)ning ma’lumotnomasi (obektivka).*
2. *Tanlovga taqdim etilayotgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning qisqacha mazmuni (annotatsiya).*
3. *Tanlovga topshirilayotgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning kengash (ilmiy yoki ta’lim tashkilotlarining) yig‘ilishlari muhokamasidan o‘tganligi to‘g‘risidagi bayonnomasidan ko‘chirma.*
4. *Ikkita taqriz (PDF).*
5. *O‘quv-uslubiy qo‘llanma qo‘lyozmasining kitob ko‘rinishidagi fayli (PDF).*

(imzo)

(F.I.SH.)

“ _____ ” 2025 yil.

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-
quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy
qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ilova

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning baholash mezonlari

T/r	Mezon	Ball
1.	O‘quv-uslubiy qo‘llanmada muqova (titul), sarlavha, annotatsiya, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa, ilovalar (agar bo‘lsa, qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar) mavjud bo‘lsa	5
2.	Kirish qismida o‘quv-uslubiy qo‘llanma shaxslarning qaysi toifasi uchun yozilgani, nimalarni maqsad qilgani, undan qanday foydalanish mumkinligi, qaysi tadqiqotlarga asoslangani tushuntirilgan bo‘lsa	5
3.	Keltirilgan ma’lumotlar ishonchli manbalardan olingan va foydalanilgan adabiyotlar, manbalar havola bilan aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa	10
4.	Material imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolardan xoli va til qoidalariga muvofiq berilgan bo‘lsa	10
5.	Taklif etilayotgan metod, texnologiya yoki metodologiya qaysi jihatlariga ko‘ra boshqalardan ustunligi hamda zamonaviy fan yutuqlari va nazariyalariga asoslanganligi izohlangan (yangilik kiritishga asoslangan) bo‘lsa	10
6.	Psixologik terminlar, ilmiy tushunchalar aniq, sodda va to‘g‘ri ifodalangan bo‘lsa	10
7.	Misollar, keyslar, topshiriqlar va mashqlar real hayotiy vaziyatlar yordamida tushuntirilgan bo‘lsa	10
8.	Mavzularni yoritishda oddiydan murakkabga tamoyiliga asoslangan, uzviylik ta’minlangan bo‘lsa	10
9.	Turli ta’lim uslublariga mos, ma’lumotni o‘zlashtirishning ko‘plab vositalariga e’tibor qaratilgan, kontent turli usullarda taqdim etilgan (vizual, taktil, kinestetik) bo‘lsa	10
10.	Har bir mavzudan keyin tafakkurni rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar berilgan bo‘lsa	10
11.	Kundalik hayotda uchraydigan turli muammolarga yechim topishga yo‘naltiradigan loyihalar va shunga o‘xshash amaliy tadqiqotlar berilgan bo‘lsa	10
Jami		100 ball

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ilova

O‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ommalashtirish bo‘yicha OMMAVIY OFERTA

Ushbu ommaviy oferta — “Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng yaxshi o‘quv-uslubiy qo‘llanma” respublika tanlovi (keyingi o‘rinlarda – tanlov) g‘oliblari tomonidan yaratilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ommalashtirishga oid huquqiy va tashkiliy shartlarni belgilaydi. Oferta ochiq bo‘lib, g‘olib deb topilgan har bir muallif uni rad etmagan taqdirda avtomatik ravishda rozilik bildirgan hisoblanadi.

1-bob. Oferta predmeti

1.1. Ushbu oferta tanlovda g‘olib deb topilgan muallif(lar) tomonidan taqdim etilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining (keyingi o‘rinlarda –Markaz) rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va boshqa ochiq elektron platformalarda bepul foydalanish uchun joylashtirishga rozilik bildirish tartibini belgilaydi.

1.2. Qo‘llanmalarni ommalashtirishdan maqsad ilg‘or pedagogik va psixologik tajribalarni keng pedagogik jamoatchilikka yetkazish, ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashishdir.

2-bob. Mualliflik huquqlari va foydalanish shartlari

2.1. Mualliflar o‘quv-uslubiy qo‘llanmaning mualliflik huquqiga ega bo‘lib qoladi.

2.2. Muallif ushbu ofertaga rozilik bildirgan holda, quyidagi shartlar asosida asarni foydalanishga ruxsat beradi:

o‘quv-uslubiy qo‘llanmani **raqamlitalim.trm.uz** platformasida, Markazning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, shuningdek, boshqa ochiq elektron platformalarda joylashtirish;

o‘quv-uslubiy qo‘llanmani to‘liq yoki qisqargan shaklda **ta’lim jarayonida erkin foydalanish** uchun bepul tarqatish;

o‘quv-uslubiy qo‘llanma ommalashtirilayotganda muallifning ismi, lavozimi va boshqa mualliflik ma’lumotlari saqlab qolinishini ta’minlash.

2.3. O‘quv-uslubiy qo‘llanma hech qanday tijorat maqsadlarida (sotish, pullik kurslarga kiritish va hokazo) foydalanilmaydi, faqat ijtimoiy foyda, ma’rifiy-tarbiyaviy va o‘quv maqsadlarida ishlatiladi.

2.4. Muallif tomonidan taklif rad etilmasa va Tanlov g'olibi deb e'lon qilinganidan so'ng 5 ish kuni ichida norozilik bildirilmasa, ushbu ommaviy oferta **amalga qabul qilingan** hisoblanadi.

3-bob. Shartlarni o'zgartirish va bekor qilish

3.1. Markaz ushbu ofertaning mazmuniga o'zgartirish kiritishi mumkin, lekin bu o'zgartirishlar ilgari ommalashtirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3.2. Muallif o'quv-uslubiy qo'llanmani ommalashtirishdan voz kechishni istasa, bu haqda Markazga yozma (yoki elektron) ariza orqali murojaat qiladi. Ariza qabul qilinganidan so'ng 10 ish kuni ichida o'quv-uslubiy qo'llanma ochiq manbalardan olib tashlanadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

4.1. Oferta shartlariga rozilik bildirgan mualliflar Markazning rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va boshqa ochiq elektron platformalarda, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida, konferensiya, forum va seminarlarda ularning nomidan foydalanilishiga rozilik bildirgan hisoblanadi.

4.2. Mualliflar ushbu ofertani qabul qilish orqali Nizomda belgilangan barcha talab va mezonlarni bajarganini, plagiatdan xoli ish taqdim etganini va materiallar ustida mustaqil ishlaganini tasdiqlaydi.